

SH. SARIQOV, SH. SARIQOVA,  
M. MAMADINOVA, K. ALLAMJONOV

# IQTISOD VA SOLIQ ALIFBOSI

Soliq bo'yicha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan,  
qayta ishlangan ikkinchi nashr

Umumta'lim maktablarining  
1-sinfi uchun o'quv qo'llanma

МАЖБУРИЯ  
НУСХАЛАР

TOSHKENT  
"YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE"

2008

65 971

65.261.4971

**Loyiha rahbari** — O'zbekiston Respublikasi  
Davlat Soliq qo'mitasi raisi **B. Parpiyev**

*Davlat Soliq qo'mitasi raisining  
birinchi o'rinbosari E. Gadoyev umumiy tahriri ostida*

**Mas'ul muharrir** – B. Haydarov.

**Taqrizchilar:** F. Mirzayev, Davlat Soliq qo'mitasi boshqarma boshlig'i;  
N. Xo'jayev, iqtisod fanlari doktori, professor;  
X. Xotamova, Respublika ta'lim markazi iqtisodiy ta'lim sektori boshlig'i.

**Materiallarning fanlar bo'yicha taqsimlanishi:**



– O'qish



– Atrofimizdagi olam



– Kattalar bilan o'qing



– Matematika



– Ona tili



– Odobnoma



– Mehnat



– Soliqqa oid matnlar va topshiriqlar

65  
I-98

HO 34845  
091

**Iqtisod va soliq alifbosi:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun o'quv qol./ Sh. Sariqov, Sh. Sariqova, M. Mamadinova, K. Allamjonov, Mas'ul muharrir B. Haydarov. – 2-soliq bo'yicha materiallar bilan to'ldirilgan, qayta ishlangan nashr. – Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2008. - 32 b.: rasm.

I. Sariqov, Sherzodbek va boshq.

BBK 65971  
BBK 65.261.4971

ISBN 978-9943-309-80-7

2008/12  
A6971  
Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston  
© "Yangiyul poligraph service", 2008  
© Sh. Sariqov, 2008



### **Aziz bolajonlar!**


Mana Siz “Iqtisod va soliq alifbosi” bilan tanishishni boshlayapsiz. Bu kitob Sizga hayotda eng kerak bo‘ladigan bilimlarni beradi. U Sizni tejamkorlikka va ishbilarmonlikka o‘rgatadi. “Iqtisod va soliq alifbosi” ni ham o‘qib, ham uqib olishga harakat qiling. Bu – kelajakda barcha havas qiladigan, uddaburon, tadbirkor, boy-badavlat inson bo‘lib yetishishingizga ko‘maklashadi.

Ushbu kitobni o‘qishda Sizga ota-onangiz, aka-opalaringiz ko‘maklashadilar.

## I. EHTIYOJLAR VA IMKONIYATLAR

### 1.1. Odamlar yashashi uchun qanday narsalar kerak bo'ladi? Moddiy ehtiyojlar

1. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Ular insonga nima uchun kerak?

**Kattalar  
uchun**

Agar biz biror bir narsadan foydalanishga xohish sezsak, demak, bizda bu narsaga ehtiyoj bor deymiz.

2. Savollarga javob bering.



- a) O'quvchilarning bilim olishlari uchun nimalar kerak?
- b) Qish bo'lmaydigan mamlakatlarda yashovchi odamlarga qanday kiyimlar kerak?
- d) Qish sovuq bo'ladigan mamlakatlarda yashovchi odamlarga qanday kiyim-kechak kerak?

3. Rasmdan: a) ko'proq qiz bolalar o'ynaydigan o'yinchoqlarni ajratib ko'rsating; b) ko'proq o'g'il bolalar o'ynaydigan o'yinchoqlarni ajratib ko'rsating.



**Ehtiyojlar** – odamlar o'zining yashashi uchun zarur deb hisoblaydigan narsalarga bo'lgan xohish-istaklaridir.

**Kattalar uchun**

4. O'qing.

### Maktabga tayyorgarlik

Sentabrga sanoqli kunlar qoldi. Sobir va Olim onasi bilan yangi o'quv yili uchun kimga qanday o'quv qurollari zarurligi haqida suhbatlashdilar. Olim oyisidan o'zi uchun daftar, qalam, ruchka olib kelishini so'radi. Sobir esa sumka kerakligini aytdi.

Bu suhbatni eshitib turgan Jamshid oyisidan so'radi:

– Oyi, nima uchun Sobir akam sizdan sumka, Olim akam esa daftar, qalam, ruchka xarid qilishingizni so'radilar?





– Sobirning daftar, ruchka, qalami bor. Sumkasi yo‘q. Sumkaga zarurat bor, ya‘ni ehtiyoji bor. Olimning esa sumkasi bor. Ruchka, daftar, qalami yo‘q. Unga ruchka, qalam, daftar zarur, ya‘ni ularga ehtiyoji bor.

Kishida qaysi narsaga zarurat tug‘ilsa, unda shu narsaga ehtiyoji paydo bo‘ladi, – dedi oyisi.

### Savollarga javob bering.

1. Ehtiyoj nima?
2. Sobir nimaga ehtiyoj sezdi? Olim-chi?
3. Jamshidning oyisi ehtiyoj to‘g‘risida nimalar dedi?

### 5. Rasmlarni kuzating va savolga javob bering.



O‘quvchi dars tayyorlash jarayonida yuqoridagi narsalardan qaysilariga ehtiyoj sezishi mumkin?



## 1.2. Odamlarning yashashi uchun faqat moddiy ehtiyojlar – turli xil narsalarning o‘zi yetarli mi? Ma’naviy ehtiyojlar

1. O‘qing.

### Dam olish kuni

Yakshanba kuni edi. Ravshanning oyisi uni barvaqt uyg‘otdi. Ular nonushta qildilar. Nonushtadan so‘ng oyisi:

– O‘g‘lim, tezroq kiyina-qol. Shaharga – Qo‘g‘irchoq teatriga boramiz, – dedi.

Ravshan juda xursand bo‘ldi va tezda hozirlandi.


Ular birga teatrga bordilar va yangi ertakni tomosha qildilar.

Sahnadagi qo‘g‘irchoqlar va ularning harakati Ravshanga juda yoqdi. U ertakni zavq bilan tomosha qildi.

Teatrdan chiqqandan so‘ng Ravshan bilan oyisi shahar markazidagi xiyobonni aylanishdi. Xiyobondagi go‘zal manzaralar Ravshanni zavqlantirdi.

Ravshan dam olish kuni maroqli o‘tganligini va yana shunday dam olishni xohlashini aytdi.

Oyisi Ravshanni bu yerga tez-tez olib kelishga va‘da berdi.



### Savollarga javob bering.

1. Ravshan oyisi bilan yakshanba kuni qayerga bordi?
2. Ravshan teatrga borib qanday ehtiyojini qondirdi?
3. U oyisi bilan yana qayerga bordi?
4. Siz dam olish kunini qanday o'tkazasiz? Bunda qanday ehtiyojlaringizni qondira olasiz?

### 3. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Kim nima qilayapti?
2. Nima uchun ular vaqtlarini shunday o'tkazayaptilar?
3. Ular qanday ehtiyojlarini qondirmoqdalar?

### 4. O'qing.

#### Dam olish

Shavkat bilan Zafar ertaga imtihon topshiradilar. Ular bir necha kundan beri kitob o'qib, dars tayyorlab charchadilar. Shavkat: "Men dam olaman", – deb yotib uxladi. Zafar esa hovliga chiqib musiqa tingladi, uzoq vaqt gulzorda aylanib yurdi. Ular dam olganlaridan so'ng, yana dars qilishga kirishdilar.



## Savollarga javob bering.

1. Shavkat bilan Zafar nima uchun charchagan edilar?
  2. Zafar qanday dam oldi? Shavkat-chi?
  3. Ular ikkalasi ham o'z ehtiyojlarini qondirdilar desak bo'ladimi?
  4. Siz dam olishga bo'lgan ehtiyojlaringizni qanday qondirasiz?
5. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Quyidagi binolar va inshootlar kimning mablag'i hisobiga qurilgan deb o'ylaysiz?
2. Davlat mablag'lari hisobiga qurilgan yana qanday joylarni bilasiz?
3. Davlat bu qurilishlar uchun mablag'ni qayerdan oladi?

## 6. O'qing.

### Davlat mablag'ni qayerdan oladi?

Gulnora birinchi sinfda o'qiydi. Uni o'zi o'qiyotgan maktabini kim qurdirgani va jihozlatgani qiziqtirib qoldi.

U dadasidan so'radi: "Dadajon, bizning maktabimizni kim qurdirgan va jihozlatgan?" Dadasi unga: "Sening maktabingni davlat qurdirgan va jihozlatgan", – deb javob berdi. "Davlat qurish va jihozlash uchun mablag'ni qayerdan oladi?" – so'radi yana Gulnora. "Davlatga menga o'xshagan odamlar o'z daromadlaridan





### 1.3. Xohish va istak. Xohish va istaklarning ko'pligi. Hamma vaqt ham odamlar o'z orzulariga yetishadimi?

1. Quyidagi rasmda tasvirlangan narsalardan:

a) Odamlarning yashashi uchun eng zarur bo'lgan narsalarni ajratib ko'rsating;

b) Odamlarning dam olishi uchun zarur bo'lgan narsalarni ajratib ko'rsating.



**Moddiy ehtiyojlar** – odamning yashashi uchun zarur bo'lgan ashvoviy narsalar – ular oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va shu kabilardir.

**Kattalar  
uchun**

2. Savollarga javob bering.

1. Eng zarur bo'lgan ehtiyojlaringiz nimalardan iborat?
2. Moddiy ehtiyojlaringiz nimalardan iborat?
3. Inson hayoti uchun zarur, nomi uchta harfdan iborat bo'lgan narsalarni ayting, so'ng nomi to'rtta harfdan iborat bo'lgan narsalarni ayting.

### 3. O'qing.



## Do'ppi

Bahor keldi. Navro'z bayrami ham yaqinlashib qoldi. Farhodning buvisi bayramga do'ppi olib berdi. Farhod do'ppini kiyib ko'chaga chiqdi. Uni do'sti Ravshan kutib turar edi.

– Voy, chiroyli ekan, – dedi u Farhodning do'ppisiga qarab.

Ular birga o'ynay boshladilar. Ravshan Farhodning do'ppisiga qarab-qarab qo'yardi. Buni Farhod sezdi shekilli, “hozir chiqaman”, dedi-da, uyiga kirib ketdi.

– Buni olib qo'ying. Ravshanda yo'q ekan, men ham kiymayman, – dedi Farhod oyisiga.

Ertasiga Ravshanning oyisi ham xuddi shunaqa do'ppi olib kelib berdi. Ular do'ppilarini kiyib Navro'z bayrami tomoshalariga borishdi.




### Savollarga javob bering.

1. Hikoyada nima to'g'risida so'z boradi?
2. Do'ppini ehtiyoj deb atasak bo'ladimi?

### 4. Rasmlarda tasvirlangan narsa nomlarining bosh harflarini yozsangiz, muhim iqtisodiy so'zni bilib olasiz.

--	--	--	--	--	--



5. Quyidagi rasmda tasvirlangan narsalardan:

a) Odamlar kundalik turmushda ishlatadigan eng zarur narsalarni ajratib, nomlarini yozing;

b) Odamlarning dam olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan narsalarni ajratib, nomlarini yozing.



6. Quyidagi rasmda tasvirlangan narsalardan:



a) bahor; b) yoz; d) kuz; e) qish faslida nimalarga ehtiyoj sezishimizni ajratib, nomlarini yozing.

## 1.4. Sizning shu kunlardagi ehtiyojigingiz, xohish va istaklaringiz. Ularga erishish imkoniyatlaringiz.

1. Savolga javob bering.

Xohish va orzular ko'p, lekin hamma vaqt ham odamlar o'z orzulariga yetisha oladilarmi?

2. Savollarga javob bering.

1. Qaysi multfilmni tomosha qilgansiz? Bu multfilm asosida hikoya tuzing va so'zlab bering.

2. Nima uchun shu multfilm sizga yoqdi?

3. Multfilmni ko'rib, siz qaysi ehtiyojlaringizni qondirdingiz?

3. O'qing.

### Oltin baliq

Siz «Oltin baliq» ertagini eshitganmisiz? Agar eshitmagan bo'lsangiz, ota-onangiz yoki o'qituvchingizdan aytib berishlarini iltimos qiling.

Avvaliga kampir choliga: "Oltin baliq hech bo'lmasa, teshik tog'aramizni yangilab bersin," – deydi. Tog'arani olgandan so'ng esa yangi uy so'raydi. Bora-bora uning ehtiyoji suv osti malikasiga aylanish bo'ladi.



Biz bir ehtiyojimizni qondirganimizdan so'ng, ikkinchisi paydo bo'ladi. Ehtiyojlarni qondirganimiz sari, yangilari kelib chiqaveradi.

Demak, bizning ehtiyojlarimiz cheksiz, lekin ularni qondirish uchun imkoniyatimiz cheklangan.

#### 4. Mashqni bajaring.

1. Bitta albom varag'i tayyorlang. Unga o'zingiz xohlagan ikki xil narsaning rasmini chizing. Masalan, chap tomoniga – olma, o'ng tomoniga – banan.

2. Endi ikkalasidan bittasini tanlang va qirqib oling.

3. Nima uchun u narsani emas, bu narsani tanlaganingizni tushuntirib bering.

#### 5. O'qing.

### Yaxshi istak

Ravshanning tug'ilgan kuni yaqinlashib qoldi. U tug'ilgan kunida ajoyib sovg'aga ega bo'lishni xohlar edi. U bu istagini otasiga bildirdi.

Nihoyat, u orziqib kutgan kun ham keldi. Otasi Ravshanni yetaklab o'yinchoqlar do'koniga olib bordi. U o'yinchoqlarni zavq bilan tomosha qildi, lekin hech birini tanlamadi. Ravshan otasidan kompyuter o'yinini sovg'a qilishini so'radi. Otasi o'g'liga



kompyuter o'yinini sotib olish uchun hozircha mablag'i yetarli emasligini aytdi va keyinchalik sovg'a qilishga va'da berdi.


Ravshan aqlli bola bo'lganligi uchun otasining gaplariga rozi bo'ldi. So'ngra ular chiroyli ayiqcha xarid qildilar.

Ravshan ayiqchasi bilan uyga xursand bo'lib qaytdi.

### Savollarga javob yozng.

1. Ravshan nimani xohlardi?
2. Nima uchun otasi Ravshanga kompyuter o'yini sotib ololmadi? Uning imkoniyati cheklangan edimi?
3. Inson orzu-istaklariga qanday yetishi mumkin?

6. Bo'g'inlardan foydalanib so'zlar tuzing:



7. O'qing.

### Orzu

Ali velosipedga ega bo'lishni orzu qilar edi. Onasi unga velosiped olish uchun hozircha mablag' yo'q ekanligini tushuntirdi. Onasi qachon yetarli mablag' bo'lsa, velosiped olib berishga va'da berdi.



## Savollarga javob bering.

1. Nima uchun ona velosiped xarid qilib bera olmadi?
2. Velosiped sotib olish uchun nima qilish kerak?

Xarid qilishga bo'lgan xohishingizning amalga oshishi:

1. Ota-onangizning roziligiga;
2. Imkoniyatga;
3. Ota-onangiz mablag'iga bog'liqdir.

**Kattalar  
uchun**

8. Rasmlarda tasvirlangan narsa nomlarining bosh harflaridan so'zlar tuzib yozing. Hosil bo'lgan so'zlarning ma'nosini ayting.

1



2



9. Hozirgi fasl uchun sizga kerak bo'lgan narsalarni, ya'ni sizning mavsumiy ehtiyojlaringiz ro'yxatini daftaringizga yozing.

2008/02  
AGZH

Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston M

10. Masalani yeching.



“Bilmasvoy” konfetining bir donasi 100 so‘m, “Olmali” konfetining bir donasi 80 so‘m. Ilhomjonda esa 170 so‘m bor. U ikkala konfetdan ham iloji boricha ko‘p yemoqchi, Ilhomjon qanday tanlov qilishi kerak?

**Kattalar  
uchun**

Jamiyat rivojlanib borgan sari, ehtiyojlar ham ko‘payib, ortib boradi, ehtiyojlarning qondirilishi – imkoniyatlarga, har xil narsalarning ko‘pligiga, yetarliligiga va ularga ega bo‘lish uchun mablag‘ning mavjudligiga bog‘liq.


11. Jalil 100 so‘m pulga quyidagi narsalardan qaysilarini xarid qilishi mumkin?



80 so‘m



20 so‘m




10 so‘m



50 so‘m



90 so‘m



100 so‘m

## II. MEHNAT. ISHLAB CHIQRISH

### 2.1. Odamlar nima uchun mehnat qiladilar?

1. O'qing.

Qo'l nima uchun kerak?



G'ulomjon buvisi bilan suhbatlashishni yaxshi ko'rar edi.  
Bir kuni buvisi G'ulomjondan:

- Qo'l nima uchun kerak? – deb so'radi.
- Koptok o'ynash uchun, – deb javob berdi G'ulomjon.
- Yana-chi?

- Ovqat yeganda qoshiq ushlab uchun.
- Yana-chi?
- Varrakni uchirish uchun.
- To'g'ri, lekin kishilarning qo'li o'yin o'ynash, ovqat yeyish uchungina emas, mehnat qilish uchun ham kerak. Ovqat yeyish uchun ham avvalo mehnat qilasan.
- Mehnatni qanday qiladilar?
- O'g'lim, mehnatning aqliy va jismoniy turlari mavjud. Akang hisobchi bo'lib ishlaydi, u aqliy mehnat qiladi. Dadang dehqonchilik qiladi, u jismoniy mehnat qiladi. Lekin hamma mehnat turlarida qo'l katta ahamiyatga ega.


**Savollarga javob bering.**

1. Kishilarga qo'l nima uchun kerak ekan?
2. Qo'l mehnatimiz bilan o'zimizga nimalarni yaratamiz?

**Kattalar  
uchun**

Insonlar yaxshi yashash, pul topish, hayotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qiladilar.

2. Maqolni o'qing va izohlang.



Mehnat qilib topganing,  
Qandu asal totganing.



3. "Odamlar nima uchun mehnat qiladilar?" mavzusida hikoya yozing va o'qib bering.

4. Rasmlardan foydalanib bo'sh kataklarni to'ldiring.



T □ I □ v □ zor

N □ n

B □ n □

M □ sh □ na

K □ y □ □ k

O □ q □ t

5. Rasmlarni kuzating. Rasmdagi kishilar qanday mehnat turlari bilan band ekanligini tushuntiring.



## 2.2. Kim qayerda ishlaydi? Kasb va hunar. Bilim nima uchun kerak?

### 1. O'qing.



Shunday kasb egalari borki, ular pul topish uchun biror narsa yaratadi va uni sotadi. Ular yaratgan narsa mahsulot deyiladi.



### Savollarga javob bering.

1. Dehqonlar yetishtiradigan mahsulot nimalardan iborat?
2. Tegirmonchi qanday ishni bajaradi? U qanday mahsulot yaratadi?
3. Novvoy nonni nimadan tayyorlaydi?
4. Bog'da nimalar yetishtiriladi?

### 2. O'qing.



### Bahs

Bir kuni tegirmonchi, dehqon va novvoy bahslashib qolishdi.

Novvoy dedi:

– Men mana shu mazali va chiroyli nonlarni pishirmasam, sizlar nima yegan bo'lardingiz?



– Men bug‘doyni o‘z tegirmonimda yanchib un qilmasam, sen bu mazali nonlarni qanday pishirarding? – dedi tegirmonchi.

– Agar men bug‘doyni ekib, parvarish qilmaganimda, sen tegirmonda nimani yanchar eding? – dedi dehqon.

Ular uzoq tortishib, bir qarorga kelishibdi.

Siz nima deb o‘ylaysiz, ular qanday xulosaga kelishgan?

3. Maqollarni o‘qing va izohlang.

Birlashgan kuch yengilmas.

Birlashgan o‘zar,  
Birlashmagan to‘zar.



4. Gaplarni to‘ldiring.

... non yopadi.

... oyoq kiyimi tuzatadi.

... she‘r yozadi.



5. Bo‘g‘inlarni birlashtirib so‘zlar hosil qiling.

mah

ti

su

tak

lot

yoj

is

eh



6.



Rasmdagi kishilarning kasbini ayting.

## 2.3. Mehnatning mahsuli – mahsulot va uning turlari

1. Rasmlardagi mahsulotlarni kimlar, qanday ishlab chiqargan?



2. Hunarmandlarning mehnat mahsulini toping va savollarga javob bering.



1. Do'ppido'z do'ppini qanday xomashyolardan tayyorlaydi?
2. Tandirchi tandirni qanday xomashyolardan yasaydi?
3. To'quvchi qanday xomashyolardan foydalanishi mumkin?



3. 1) Nodir bilan Sobir matematikadan uy vazifasini bajarmadilar. Ular uy vazifasini tanaffus paytida bajarishga qaror qildilar. Nodir ikkita misolni yechishga ulgurdi. Sobir esa uchta misolni yechishga ulgurdi. Kimning mehnat mahsuli ko'p?



2) Ikki asalari moychechaklar ochilgan daladan sharbat to'pladi. Ikkalasi ham 5 soat mehnat qildi. Bu vaqtda Mayya nomli asalari 2 gramm, Gelya nomli asalari 5 gramm sharbat yig'di. Bu ikkala asalarining mehnat mahsullarini taqqoslang.

4. Topishmoqning javobini toping.

Pishirsa osh bo'ladi,  
Pishirmasa qush bo'ladi.



Iqtisodiyotda biror mahsulotni tayyorlash uchun kerak bo'lgan narsalar xomashyo deb ataladi.

**Kattalar  
uchun**

5.



Rasmlardan foydalanib bitta xomashyodan ikki xil mahsulot yaratilishi mumkinligini tushuntiring.

## 2.4. Nima qayerda ishlab chiqariladi?

1. Rasmlarni kuzating. Korxonalar haqida shu korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarga bog'lab gap tuzing.



**Namuna:** Samolyot samolyotsozlik zavodida ishlab chiqariladi.

2. Quyidagi mahsulotlar qayerlarda ishlab chiqarilishini yozing.  
Namuna: Soat – soat zavodida.



3. To'rtta buyumning nomini yozing.

a) Ularning nimadan ishlab chiqarilganligini aytib bering.

b) Bu buyumlar bitta joyda ishlab chiqariladimi?

d) Mahsulot ishlab chiqarmaydigan korxonalarni bilasizmi?



4. Korxonalar, firma, ishlab chiqarish so'zlari qatnashgan gaplar tuzing.



5. O'qing.



### G'isht zavodi

Shahrimizda g'isht zavodi bor.

G'isht tayyorlash hozirgi kunda maxsus mashinalar yordamida bajariladi. G'isht zavodlaridan



chiqqan tayyor mahsulot – g'ishtlar mashinalarga o'tilib, qurilishlarga jo'natiladi. G'ishtlardan ko'rkam binolar quriladi. Bu binolar kishilarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. G'isht zavodi ishlab chiqargan g'ishtlarini sotadi va daromad qiladi. Bu daromaddan davlatga albatta soliq to'lanadi.

### Savollarga javob bering.

1. G'isht nimalar yordamida tayyorlanadi?
  2. G'ishtlar qayerlarga yuboriladi?
  3. Qurilishda kimlar mehnat qiladi?
  4. O'zingiz bilgan ishlab chiqarish korxonalari nomlarini yozing.
  5. G'isht zavodi davlatga nima to'laydi?
  6. Davlat bu mablag'ini qayerlarga ishlatishini bilasizmi?
6. Sizing atrofingizdagi narsalar, buyumlar nimalardan va qanday xomashyolardan yaratilganligini bilasizmi?



Rasmlarda tasvirlangan buyumlarni tayyorlashda qanday xomashyolardan foydalanilganligini ayting.



1. Yog'och
3. Rangli metall
5. Paxta tolali gazlama
7. Charm
9. Oyna
11. Qog'oz
13. Rang

2. Qora metall
4. Junli gazlama
6. Sun'iy gazlama
8. Plastmassa
10. Rezina
12. Karton
14. Ip

6. Rebusni yeching. Topilgan so'zlarning ma'nosini ayting.





7. Tushirib qoldirilgan harflarni o'rniga qo'yib yozing. Hosil bo'lgan so'z ma'nosini izohlang.

hu □ ar, k □ r □ o □ a, k □ sb, e □ ti □ oj, t □ v □ r.



8. Rasmlarni kuzating va savolga javob bering.



Rasmda tasvirlangan joylarda nimalar ishlab chiqariladi?

## MUNDARIJA

### I. Ehtiyojlar va imkoniyatlar

- 1.1. Odamlar yashashi uchun qanday narsalar kerak bo'ladi? Moddiy ehtiyojlar.....4
- 1.2. Odamlarning yashashi uchun faqat moddiy ehtiyojlar – turli xil narsalarning o'zi yetarli mi? Ma'naviy ehtiyojlar..... 7
- 1.3. Xohish va istak. Xohish va istaklarning ko'pligi. Hamma vaqt ham odamlar o'z orzulariga yetishadilarmi? ..... 11
- 1.4. Sizning shu kunlardagi ehtiyojingiz, xohish va istaklaringiz. Ularga erishish imkoniyatlaringiz..... 14

### II. Mehnat. Ishlab chiqarish

- 2.1. Odamlar nima uchun mehnat qiladilar? ..... 19
- 2.2. Kim qayerda ishlaydi? Kasb va hunar. Bilim nima uchun kerak? .....22
- 2.3. Mehnatning mahsuli – mahsulot va uning turlari.....24
- 2.4. Nima qayerda ishlab chiqariladi? .....26

**SHERZODBEK SARIQOV, SHAHNOZAXON SARIQOVA,  
MUAZZAMXON MAMADINOVA, KOMILJON ALLAMJONOV**

## **IQTISOD VA SOLIQ ALIFBOSI**

Soliq bo'yicha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan,  
qayta ishlangan ikkinchi nashr

*Umumta'lim maktablarning  
1-sinfi uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — "Yangiyul poligraph service" — 2008

Muharrir — *R. Ko'chkarov*

Texnik muharrir — *A. Kaybisheva*

Musahhih — *Sh. Oripova*

Sahifalovchi — *O. Mamadaliyev*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 04.09.08. Bichimi 70x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«Arial» garniturasida. Ofset bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 2,0.  
Nusxasi 5000. Buyurtma № 73.

"Yangiyul poligraph service" MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Yangiyol sh., Samarqand ko'chasi, 44.